

O'ZBEK TILIDA APOTROPEIK SEMANTIKALI ANTROPONIMLAR TASNIFI

Allamuratova Xosiyat,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada antroponimlarning xalq madaniyati va etnografiyasi bilan bog'liq jihatlari, ya'ni bolaga asrovchi, himoya qiluvchi ismlarning qo'yilishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, apotropeik ismlarning semantikasi, etnolingvistika va lisoniy tizimda tutgan o'rni o'zbek antroponimlari misolida yoritiladi. Maqolada kishilarining qadimdan so'zning magik kuchga egaligiga ishonish, shaxs ismi uning taqdiriga ta'sir qilishiga ishonib qo'yilgan antroponimlarning motivatsion xususiyatlari hamda ularning guruhlari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: apotropeik ismlar semantikasi, yovuz kuchlardan asrovchi nomlar, xunuk ismlar, tuban ismlar, himoya nomlari.

КЛАССИФИКАЦИЯ АНТРОПОНИМОВ С АПОТРОПЕИЧЕСКОЙ СЕМАНТИКОЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Алламуратова Хосият,
Преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация. В статье освещаются аспекты антропонимов, связанные с народной культурой и этнографией, то есть вопросы присвоения ребенку оберегающих и охранительных имен. Также на примере узбекских антропонимов освещается семантика апотропеических имён, их роль в этнолингвистике и языковой системе. В статье анализируются вера в магическую силу слова, мотивационные характеристики антропонимов и их групп, которые считают, что имя человека влияет на его судьбу.

Ключевые слова: семантика апотропеических имён, оберегающие имена от злых сил, уродливые имена, базовые имена, защитные имена.

CLASSIFICATION OF ANTHROONYMS WITH APOTROPEIC SEMANTICS IN THE UZBEK LANGUAGE

Allamuratova Khosiyat,
Lecturer at Termez State University

Annotation. The article highlights aspects of anthroponyms associated with folk culture and ethnography, that is, the issues of assigning protective and protective names to a child. Also, on the example of Uzbek anthroponyms, the semantics of apotropaic names, their role in ethnolinguistics and the language system are highlighted. The article analyzes the belief in the magical power of the word, the motivational characteristics of anthroponyms and their groups, who believe that the name of a person affects his fate

Keywords: semantics of apotropaic names, protecting names from evil forces, ugly names, base names, defensive names.

Kirish. Ismlar o'tmishda ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida yetib kelgan ulkan madaniy va ma'naviy qimmatga molik bo'lgan lug'aviy qatlamdir. Ismlarning yaratilishida o'zbek xalqining o'tmish-tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, rasm-u odatlari, e'tiqod va ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda ismlar tilning boshqa bir qator qatlamlari kabi o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatining tarkibiy qismidir. Ismlarning yaratilishida o'zbek xalqi o'tmishining tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, rasm-u odatlari, e'tiqod va ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda ismlar tilning boshqa bir qator qatlamlari kabi o'zbek

xalqi ma’naviy qadriyatining tarkibiy qismidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Antroponomislarni keng ko‘lamda tahlil qilish mamlakatimizda XX asrning 70-yillaridan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida rivojlandi. E.Begmatov [1], G’.Sattorov [2], R.Xudoyberganov [3], S.Kenjayeva [4] kabi olimlar olib borgan tadqiqotlar asosida antroponimika sohasi takomillashdi. Ammo o‘zbek antroponimikasida apotropeik nom va ismlarning tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emas, zero, bugungi o‘zbek lingvomadaniyatida ushbu tadqiq obyekti bilan bog‘liq nazariy asosni shakllantirishga yetarlicha sabablar mavjud. Juhon tilshunosligidan farqli, o‘zbek tilshunosligida bu toifadagi ismlarni ifodalovchi alohida termin mavjud emas: umumiy holda, apotropeik nomlar alohida olingan atoqli otlar, muayyan tasviriy vositalar hamda etnografizmlar sirasida o‘rganiladi. Binobarin, mazkur maqolamiz apotropeya hodisasining o‘rganilish metodologiyasi hamda uning xalq etnomadaniyati, tilida tutgan o‘rnini yoritishga bag‘ishlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Apotropeik nomlar mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, lug‘aviy-ma’noviy, qiyosiy-tarixiy, etimologik, struktural, tipologik-tasnifiy, sotsiolingvistik, lingvomadaniy va etnografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Apotropeya dastlab etnografik tushuncha hisoblangan. «Etnografik tushunchalar va atamalar kodeksi» da apotropeyaga «inson, hayvonlar, o‘simpliklar, narsalar va binolarni yovuz kuchlarning zararli harakatlaridan himoya qiladigan narsa, belgi, harakat yoki holat, so‘z, ibora, tovush, hid (ruhlar, xudolar, yovuz ko‘z, sehrgarlik)», deya izoh beriladi. Qadimgi yunonchadan (topos) so‘zmaso‘z tarjima qilinganda, «baxtsizlikning oldini olish», «yovuzlikni rad etish» degan ma’nolarni anglatadi. Qadimgi yunon madaniyatida turli xil qo‘rinchli tasvirlar (sherlar, gorgonlar, griffinlar, falluslar va b.) ko‘rinishida namoyon bo‘lgan yovuz ruhlarni odamlardan haydab chiqaradigan, uylarini, ekinlari va hayvonlarini himoya qiladigan afsonaviy narsalarni apotropeyonlar deb nomlangan.

Etnografiya va onomastikaga oid adabiyotlarda «asrovchi nomlar», «himoya nomlari», «tuban nomlar», «xunuk ismlar» kabi tushunchalar mavjud. Qadim davrlardan beri ota-onalar o‘z farzandini qandaydir dushmanlardan himoya qilib kelgan. Bunday harakat chaqaloqqa beriladigan ismda ham ifodalangan. Bunda bolaning dushmani deb bilingan yovuz kuchlarni boladan uzoqlashtirish ko‘zda tutilgan. Shu sababli bolani yomon, xunuk, yoqimsiz, bu bola bizning bolamiz emas, uni topib, sotib olganmiz kabi tavsiflashgan. Bu choralar tufayli bola irodali, u yovuz kuchlar hujumiga bardosh bera oladi, deb umidlanish va o‘shanga mos ravishda chaqaloqni mahkam, mustahkam narsalarga qiyoslash alohida o‘rin tutgan. Ushbu tushuncha va tasavvurlar motiv rolini o‘ynagan ismlarni keltiramiz:

1) bola e’tiborga arzimas, xunuk, yomon deb tasvirlangan: Dunbay (arzimas), Devona, Yomon//Jaman, Yomonbola//Jamanbola, Yomonqul// Zabunboy (arzimas), Zalil (tuban), Sanor (balchiq, iflos), Tasqara (xunuk), Turob (tuproq), Cho‘tir.

N.B.Aldarova buryat antroponimiyasidagi “himoya nomlari” haqida yozar ekan, Muuday, Muuxan, Muutxa (yomon) ismlarini tilga oladi [5, C. 6].

T.Kusimovaning yozishicha, boshqirdlarda bolaga qirq kun ichida ism berilmasa, u ism so‘rab yig‘laydi degan ishonch mavjud. Ushbu muallif boshqird tilidagi Sotibaldi, Saylik, Satilg‘an, Tapildi, Tabish hamda Torson, Terek (Turoq), Isən, Isənbikə, Isənsura, Terag‘ol ismlarini «himoyalovchi nomlar» qatoriga kiritadi. U ushbu motivli ismlar qatoriga Bukbash, Buksibay, Buksa, Buktiy, Kildebukbasar (buk – kal), Ketkenə, Selegay (so‘lakay), Sasikg‘ol (Sassiqqul), chuvash tilidagi Sassikbash, Yamantay, Yamankay, Yamaka ismlarini ham kiritadi [6, C. 11-13].

2) bola irodali, mahkam, mustahkam, yovuz kuchlar havfiga bardosh bera oladi, deb tasavvur qilingan hamda u o‘shanday narsa va qurollar nomiga qiyoslangan:

– toshga: Toshbadal, Toshbeka, Toshboy, Toshbibi, Toshbolta, Toshbosh, Toshjigit, Toshgul va b.;

– po‘latga: Po‘lat, Po‘latturdi, Po‘latoy, Po‘latgul, Bekpo‘lat va b.;

– temirga: Temir, Temira, Temirbek, Temirberdi, Temirpo‘lat, Temirtosh, Temirqo‘zi va b.;

– ba’zi mustahkam buyum va qurilmalarga: No‘xta, Sovut, Sovutboy, Boltaboy, Bolg‘aboy, O‘roqboy va b.;

– ba’zi mustahkam o‘simliklarga: Archa, No‘xat, Yovshon, Yovshanboy va b.

E.Begmatov o‘z ishlarida yuqoridagi ismlarni berishda kishilar amal qiladigan ba’zi etnografik udumlarni A.L.Troitskaya ma’lumotiga asoslanib keltirgan. Masalan, Qoramurt va sayramlik o‘zbeklar bolaga tosh, temir so‘zidan hosil qilingan ismlar berar ekan, quyidagi iboralarni aytishgan:

Toshdek bo‘lsun, temirdek bo‘lsun.

Itday tishlab tursun.

Yoki:

Toshdek qil, temirdek qil, sutiga ega qil [7, Б. 20-21].

Ba’zi hollarda «mahkam», «mustahkam», «qattiq» ma’nosini anglatadigan so‘zlardan ism hosil qilinganini ko‘ramiz: Mahkam, Mahkampo‘lat, Mahkamqul, Mahkamtosh, Mekkamoy, Mahkamoy.

A.Shayxulov tatar va boshqirdlarda bola uzoq umr ko‘rsin degan niyatda Biktash (Bektosh), Aytimer (Oytemir) ismlari beriladi deb yozadi [8].

3) bola yoqimsiz, bemaza deb tasvirlangan va ism achchiq narsalar nomidan hosil qilingan. Shunday qilinsa, bola dushmanlari unga yaqinlashmaydi deb hisoblangan: Anzur, Anzura (piyoz), Affon (badbo‘y), Norachchiq, Piyozbek, Piyozgul, Sarimsoq, Tolhak (achchiq kakra), Turishboy (achchiq).

Oltoylar bolaning dushmanini aldash uchun bolaga ataylab xunuk ismlar berishadi. Shunday qilinganda yovuz kuchlar bolaga e’tibor bermaydi deb hisoblashadi: Tezek (tezak), Sirke (gnida – bit tuxumi), Iyt-Kulan (Itqulon) [9, С. 23].

Tatar antropomisti professor G.Sattarov chaqaloqni turli balo-qazolardan saqlash motiviga oid ismlar deb Yomon, Yomonbika, Aldar, Achchiq, So‘g‘on (piyoz), Sarimsoq, Basar (tog‘ sarimsog‘i), Sassiq, Sassiqbosh, Otsiz, Urkesh (hurkmoq), Urkish // Qo‘rqi sh nomlarini keltiradi. Shuningdek tatar tilidagi Qoldi, Qoldiboy (og‘ir kasaldan sog‘ qoldi), Tirilgan (sog‘ qolgan), Omonqoldi, Sog‘qoldi, Najot ismlari motivida ham bolani kasallikdan himoya qilish maqsadi yotadi [10, Б. 91-92, 180]. A.Idrisovning yozishicha, qirg‘izlarda bolaga ko‘z tegmasin, yomon niyati kishilar nazaridan bola uzoq bo‘lsin deya, xunuk ma’noli ismlar qo‘yiladi: Bokmurun, Bokbasar, Itbay, Kuchukbay kabi [11, С. 50].

T.Januzaqov fikricha, qozoq tilidagi Kiyozbay (Kigizbay), Jundibay (Junlibay), Eynek, Sheynek, Shinibek, Orindik, Otinshi (O‘tinchi) ismlari ham bolani ko‘z tegish, o‘limdan asrash uchun qo‘yiladi [12, Б. 41].

Turkman antropomimiyasida o‘tmishda udum bo‘lgan Tirrik, Kirli, Cher, Tezek, Deli, Kurre, Eshek, Tiken, Gizgan, Sarimsak, Italma, bola uzoq kasal bo‘lib qolganda beriladigan Gechmish, Achil, Øre (O‘rlasin), Doduk, Yanildi ismlari ham bolani bevaqt o‘limdan asrashga qaratilgan [13, Б. 15-16].

Mo‘g‘ullar bolani yomon ko‘zdan, yovuz kuchlardan asrash uchun Ñnobish («bu boshqa»), Xunbish (odammas), Nørguy (ismsiz, nomsiz), Xulgana (sichqon) deb nomlashadi. Tuvaliklar yovuz kuchlar bolani topa olmasin deb uning asosiy ismini yashirishadi va bolani yoqimsiz ismlar bilan (Bagay-ool – yomon bola, Miyyak-ool – iflos bola kabi) bilan atashadi [9, С. 306];

4) bola o‘zi tug‘ilgan oilaga aloqasi yo‘q, u begona, boshqaning farzandi yoki «sotib olingan», «topib olingan» deb tasvirlangan. Bolaning dushmanlarini aldash, adashtirish, boladan uzoqlashtirish uchun shunday qilingan. Bu quyidagi nomlar motivida aks etgan: Begona, Bo‘lak, Bo‘lakboy, Bo‘lakberdi, Bo‘lakqul, Digar (o‘zga), Yanglish, Musofir, Musofira, Muhojir, Muhojira, Tabdil, Tabdila (almashtirilgan), Tog‘ay, Tog‘aymurod, Tog‘aygul, Tog‘ayqiz (tug‘asi uyida tug‘ilgan), O‘lja, O‘lon.

Bolani «topib olingan», «sotib olingan» deb tasvirlash odati hamda bolaga o‘shanga mos ismlarni tanlashda bajarilgan rasm-rusmlar, udumlar ba’zi etnografik adabiyotlarda, shuningdek, E.Begmatovning ishlarida atroflichha yoritilgani uchun

ularga batafsil to‘xtashni lozim topmadik.

Qayd qilingan odatga ko‘ra, quyidagi ismlarda chaqaloq topib yoki sotib olingan deb tasvirlanadi: Sotiboldi, Sotimbika, Sotgul, Sotilg‘on, Sotimxon, Sotqil, Sotqinoy, Sotqinql; Topildiq, Topdiq, Topilg‘on, Topildi, Topiboldi;

5) ba‘zi ismlarda «bola himoya ostiga olingan», «u yashiringan, berkitilgan, xavf-xatardan to‘silgan» deb tasvirlanadi va unga o‘sha ishonchlarini ifoda etuvchi ismlar beriladi: Berk, Berkli, Berkboy, Izolat (himoyal), Mahsura (to‘silgan), Mahrusa (himoyal), Osim, Osima (qo‘riqlangan), Tabiya (himoya qilingan), Chimmat, Chimmato (to‘silgan), Qo‘riqboy (himoyalangan), Himoyat (himoyalangan) va b.;

6) avvalgi bolalari turmasdan nobud bo‘lavergan oilalarda navbatdagi chaqaloqni o‘sha turmagan farzand o‘rniga, evaziga berilgan bola deb ta‘riflashgan va o‘shanga mos ravishda ism tanlangan: Avaz, Avazoy, Avazbadal, Avazberdi, Avazxon, Badal, Badalbibi, Badaljamol, To‘labbergan, To‘lagan, To‘lamish, To‘landi, To‘lov, To‘lan, O‘tagan, O‘tabbergan, O‘tal, O‘talsin, O‘talmish, O‘taxol.

Bolasi turmasdan o‘lavergan oilalarda navbatdagi chaqaloqni uydan ketib, boshqa joyda tug‘ish odati bo‘lgan. Ism mana shu holatga mos ravishda tanlangan. Masalan, qirg‘izlarda Kachkin, Kachkinbay ismlari mana shu ma’noda. A.Idrisov yo‘lda tug‘ilgan bola Jolchubay, Jolon deb nomlanishini keltirgan [11, Б. 51].

Sh.Japarov bolasi turmasdan o‘lavergan oilalarda navbatdagi chaqaloqni o‘limdan himoya qilish maqsadida Satkin (Sotgin), Alipsatar, Taabaldi (Topiboldi), Adashkan, Adashma Satibaldi, ismlari berish udum ekanini yozgan. U Tilapoldi, Tilegen, Suran, Surandi, Surabaldi, Asiran, Asirandi nomlarini ham ushbu motiv bilan bog‘lab izohlagan [14, Б. 47-48].

Adigeylar bolasi o‘laversa, navbatdagisini Byagoz (ajdaho), Guchip (Temir qalb), Tetschet (oyoqqa turish, sog‘ayish), Uchujuk (oyoqqa turgan o‘g‘il), Alid (ular bu bolani xohlamaydi), Ramipe (kutilmagan) kabi himoya nomlaridan foydalanishadi. Arablar yovuz kuchlarni adashtirish, aldash, norasidadan uzoqlashtirishni ko‘zda tutib chaqaloqni Kabixa (bemaza), Murra (achchiq), al-Xanash (ilon), Shabat (tarantul), Yamut (u o‘ladi) kabi nomlaydi. Yovuz kuchlarni chalg‘itishga intilish odati vyetnamlarda ham bor. Ular bu maqsadda chaqaloqni Et (baqa), Zy whole (qurt), Txeo (rubets) deb atashadi, Mandingolar tilida janubiy Sudanlar Vatva (krokodil) demakdir [9, С. 14, 47, 99, 204];

7) ba‘zi ismlarda chaqaloq Allohdan iltijolar qilib so‘rab olingan bola, uni Allah o‘zi asraydi (Asra, Asron, Qo‘rchipoy - ehtiyyotlash) deb tasvirlanadi va bolaning sog‘u salomat yashab ketishiga umid qilinadi. Niyoziy, Niyozbeka, Niyozerdi, Niyozugul, Niyozyoy, Xudoybergan, Egamberdi, Darig‘ (nadomat), Tokay va b.;

8) go‘dak dushmanlarini cho‘chitish, qo‘rqitish uchun bola ular xavfiga javob bera oladigan imkoniyatlarga ega deb tasvirlangan hamda chaqaloq mag‘rur, o‘jar ma’noli ismlar bilan atalgan: Asov, Asovboy (tutqich bermovchi), Inod (o‘jar, qaytmas, sarkash), Kibriyo, Kibriyoniso (mag‘rur, ulug‘lik), Masar (viqorli), Mag‘rur, Mag‘rurboy (viqorli, ulug‘vor), Sarbaland (boshi falakda bo‘lgan, mag‘rur), Faxrimiso (mag‘rur ayol), Faxrixon, Faxriya, O‘jarboy, O‘jarberdi, O‘jarqul (qaytmas, o‘z so‘zida turuvchi), Qaysar (o‘jar, mahkam), Qaytmas (o‘jar, bir so‘zli) kabi;

9) chaqaloqning umri uzoq bo‘lsin degan niyatda ba‘zan bolaga uzoq umr tushunchasini anglatadigan Momogul, Zol, Zoliya (keksha), Cholboy kabi ismlar berilgan.

Ismlarning paydo bo‘lishidagi o‘ziga xos qonuniyatlar, ilmiy asoslarni bilmagan ba‘zi shaxslar o‘zbek tilidagi Bo‘riboy, Bo‘rioy, Qo‘chqor, Itolmas, Itemas, Topiboldi, Sotiboldi, Boltaboy, Bolg‘aboy, Ketmon, Cho’tmat ismlarini eshitib hayron bo‘lishadi, hatto ularni «nomunosisib, eski nom» deb qoralashadi. Holbuki, bu ismlarning asosida bolaning sog‘ o‘sishini, bevaqt nobud bo‘imasligini istash, umid qilish motivlari yotadi.

Antroponimik nominatsiyaning etnografik asoslari – onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar ikkinchi (takroriy) nomlanish natijasida yuzaga keladi. Antroponimlar (ism, ota ismi, familiya, laqab va taxallus)ning yaratilishi muayyan

ehtiyoj va qonuniyatlar asosida yuz beradi. Nomlash jarayoni ma'lum bosqichlardan iborat bo'ladi. Bu bosqichlar birin-ketin, ikkinchisi birinchisidan mantiqan va ehtiyojga ko'ra kelib chiqadi. Masalan, chaqaloqni nomlash (ism berish) quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich:

- nomlash ehtiyoji (bolaning tug'ilishi);
 - nomlanuvchi (nomlash lozim) obyekt (bola, chaqaloq);
 - nom tanlash (an'anaviy nomlar orasidan yoki yangi nom topish);
 - tanlangan ism motivi (asos, sababi);
 - nomning lisoniy materiali (vositasi) (so'z yoki so'z birikmasi);
 - nomlash jarayoni (ism qo'yish bilan bog'liq rasm-odatlarning ijrosi);
- nomlash hoslasi, ijrosi (ism, antroponom) antroponomik, nominatsion birlik; ismning nominativ va kommunikativ funksiyasi (nom berilgan shaxsni boshqa shaxslardan farqlash, ajratish).

Ikkinci bosqich:

- shaxs ismiga familyani tirkash;
- shaxsnинг ota ismini qayd qilish.

Tilda birorta ism yo'qki, u muayyan maqsad, istaksiz berilgan bo'lsin. Ism tanlangach, u o'zining asosiy vazifasi atoqli otlik vazifasini, ya'ni shaxsni o'zgalardan farqlash vazifasini o'tay boshlaydi. Ammo uning boshqa vazifalari ham bor: kishi ismlari jamiyat a'zolari ichida, shuningdek, avloddan avlodga ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, tarixiy-etnografik, etikaviy-estetik xabarlarni tashiydi.

Xalq bolani yovuz kuchlar ta'siridan asrashning muhim vositalaridan biri – bolaga munosib ism berish deb hisoblagan. Ushbu udum asosida kishilarining qadimdan so'zning magik kuchga egaligiga ishonish, shaxs ismi uning taqdiriga ta'sir qiladi, deyilgan ishonch, e'tiqod yotadi. Natijada ota-onalar bolaning sog'lig'i, yashab ketishi, kelajak baxti va omadi uning ismiga bog'liq deb biliшgan. Ushbu e'tiqod kishilarda ismlar «xosiyatli», «xosiyatsiz» bo'ladi degan tasavvurni tug'dirgan. «Chaqaloqqa qo'yiladigan ism uning taqdiriga ta'sir qiladi, ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo'ladi, deyilgan tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ismlarni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, bolaga umri davomida esh, hamdam bo'lib yuradigan vositaga aylantira borgan. Shu tarzda «asrovchi ismlar» yoki «himoyalovchi nomlar» deb yuritiluvchi nomlar guruhi yuzaga kelgan» [15, B. 590].

So'z sehriga ishonish asta-sekin bolaning ismidan uning taqdiri va qismatiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida foydalanishga olib kelgan. Bolaga ism berish usuli, udumlar va ismdan bolaga xavf tug'diruvchi, uni balo-ofatlarga giriftor qiluvchi qandaydir yovuz kuchlar chaqaloqning dushmanlari bilan kurashish yo'lida foydalanish udumi yuzaga kelgan. Bunda ism berish bilan bog'liq turli udumlarni ado etish jarayonida o'sha asosda chaqaloqqa qo'yilgan ismdan foydalanishgan. Chaqaloqqa balo-ofatlar keltiruvchi yovuz kuchlar, chaqaloq dushmanlari haqida etnografik adabiyotlarda ko'pgina ma'lumotlar berilgan. Dunyodagi barcha xalqlarda mana shunday kuchlar borligi haqida xilma-xil tasavvurlar mavjud.

E.Begmatov yovuz kuchlar haqidagi o'zbeklar tasavvurida qadimdan yashab kelayotgan ishonchlar haqida quyidagilarni yozadi: «O'tmisht ajdodlarimiz, bolaning turli kasalliklarga chalinishini, nogiron bo'lib qolishi, nosog'lom tug'ilishi, chaqaloqlarning turmasdan bevaqt o'laverishi yoki kelajakda baxtsiz, omadsiz bo'lishi ma'lum yovuz kuchlarning, chaqaloq dushmanlarining ishi deb hisoblashgan. Go'dakning dushmani deb hisoblangan bunday yovuz kuchlar xayoliy, afsonaviy, ba'zi hollarda esa moddiy (real) tushunchalar, narsa va obyektlardan iborat bo'lib, O'zbekistonning turli hududlarida har xil tasavvur qilingan va nomlangan. Ularning eng asosiyлari quyidagilar: shayton, dev, alvasti, ajdaho, pari, azroil, yalmog'iz kampir, jin, insu jins, ajina, ayaz, chilton, maston kampir, tulpor, arvoхlar, o'tgan ajdodlar ruhi, shaytonlash, yel qoqishi, xosiyatsiz shabada tegishi, jin urishi, pari qoqishi, yog'in tagida yotib qolish, xosiyatsiz yerda bemahalda uxbab qolish, farzandsiz ayolning nazari (suqi), ko'z tegishi, kinna kirishi, ko'zikish, ichikish, xosiyatsiz kiyimlar, ota yoki onaning qandaydir noo'rin harakatlari (gunohi), chaqaloq tug'ilgan uy (joy)

ning, qolaversa, bolaga qo‘yilgan ismning xosiyatsizligi yoki og‘irlilik qilishi va b.» [16, B. 588]. Shunday qilib, bola dunyoga kelgan paytda yuz bergan xilma-xil tabiiy hodisalar, mo‘jizalar, chaqaloq badanida mavjud bo‘lgan g‘ayritabiiy holatlar yoki bolaning ko‘rinishidagi ijobiy va salbiy jihatlarni ifoda etish ko‘zda tutilgan ismlar tasviriy ismlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa. Umuman, barcha ismlarning berilishida so‘z sehri, so‘zning ilohiy ta’sir kuchiga egaligi (magiya) tushunchasi yotadi. Masalan, chaqaloqqa tug‘ilish jarayoni va ba‘zi belgi-xususiyatlarga mos nom berish, bolaga ism orqali turli istak hamda orzularning izhor qilinishi, bolaning birinchi ismini yashirin tutish, bola ismini unga og‘irlilik qilmoqda deb boshqa ism bilan almashtirish, bolaga nomunosib xarakterli kishilar ismini qo‘ymaslik, ism uchun keksalar nomini tanlash, buyuk tarixiy shaxslar ismiga taqlid qilib, bolani Alloh, payg‘ambar, avliyolar, mashhur din namoyandalari, o‘tgan ajodolar nomi bilan atash, ularning ruhi bolani qo‘llaydi deb bilish va boshqalar buning isbotidir.

Yuqorida keltirilgan jihatlarni ism orqali tasvirlash maqsadi bolani turli kasalliklarga yo‘liqishdan asrash, bevaqt o‘limdan himoya qilishdir. Bizning kuzatishlarimiz bo‘yicha tasviriy ismlar qadimiylar antroponomislari namunasi bo‘lib, dunyoda ko‘pchilik xalqlar onomastikasida uchraydi. Xulosa qilib aytganda, antroponimlarni ijtimoiy - lisoniy nuqtai nazaridan tadqiq qilish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, etika va estetika, xalq madaniyati hamda ma’naviyati tarixi, etnolingvistika, psixolingvistika sohalari uchun ham qimmatli materiallar bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013; O‘sha muallif. O‘zbek ismlari ma’nosи. – Toshkent: O‘zME, 1998. – B. 590; Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
2. Sattorov G‘. O‘zbek ismlarining turkiy qatlami. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1990. – 21 b.
3. Xudoyberganov R. O‘zbek antroponimiyasi tizimining varantdorligi. Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 24 b.
4. Kenjayeva S.E O‘zbek tili antroponimlarning nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi. Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2019. – 26 b.
5. Алдарова Н. Бурятская антропонимическая лексика. Исконные личные имена. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1979.
6. Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Уфа, 1975.
7. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
8. Шайхулов А. Тематические группы татарских и башкирских личных имен доисламского периода // Номинация в ономастике. – Свердловск, 1991. – С. 137-142. (URL: www.elar.urfu.ru/bitstream/10995/39178/1/vtop_19_16.pdf)
9. Система личных имен у народов мира. – М.: Наука, 1989.
10. Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. – Казань: КазДУ, 1990.
11. Идрисов А. Қыргыз тилиндегі ысымдар. – Фрунзе: Мектеп, 1971.
12. Жанузаков Т. Қазақ тіліндегі жалқы есімдер. – Алматы, 1965.
13. Атаниёзов С. Туркмен адам атларының дүшүндеришили сөзлүги. – Ашгабад: Туркменистан, 1992.
14. Жапаров Ш. Қыргыз адам аттары. – Фрунзе: Илим, 1989.
15. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosи. – Toshkent: O‘zME, 1998.
16. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosи (ikkinchи nashri). – Toshkent: O‘zME, 2007.
17. Allamuratova X. Linguistic features of contominational and apotropeic names in the system of anthroponyms of Uzbekistan //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 141-145.
18. Allamuratova X. Apotropeya – etnolingvistikating tadqiq obyekti sifatida // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2021 yil, № 1/2/1, – B.202-206.